
Semantic and Pragmatic Features of Euphemisms in German and Uzbek Media Discourse

Nurkulov Javlon Rashid ugli

javlon.nurkulov0505@gmail.com

Trainee lecturer, Department of German

Language Theory,

Uzbekistan State World Languages University

Annotation *In the article, a comparative analysis of the semantic and pragmatic features of euphemisms in German and Uzbek media discourse is conducted. Online newspaper texts are used as the primary research material, and the functional potential of euphemistic units in political, economic, and social contexts is examined. The results of the analysis show that euphemisms perform the functions of softening information, neutralizing negative and harsh content, and ensuring communicative caution. Euphemisms in German and Uzbek media discourse are widely used across political, economic, and social domains, which is illustrated through examples. Furthermore, functional similarities and cultural-stylistic differences between the two languages are identified. The research findings demonstrate that pragmatic and cultural factors play an important role in the translation of euphemisms and highlight the necessity of accurate contextual interpretation in media discourse. Overall, euphemisms serve as an important linguistic tool in media discourse, contributing to the reduction of emotional impact and the softening of social communication. This approach enables a deeper understanding of the pragmatic potential of linguistic means in media texts and helps to identify their socio-communicative functions. The results are scientifically generalized, final conclusions are drawn, and their practical significance is indicated.*

Keywords *Euphemism, media discourse, semantics, pragmatics, political discourse, online newspaper, German language, Uzbek language*

Nemis va o'zbek media diskursida evfemizmlarning semantik-pragmatik xususiyatlari

Nurqulov Javlon Rashid o'g'li

javlon.nurkulov0505@gmail.com

Stajor-o'qituvchi, Nemis tili nazariy fanlar

kafedrasini,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Maqolada nemis va o'zbek media diskursida evfemizmlarning semantik hamda pragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida onlayn gazeta matnlari asos qilib olinib, ulardagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mazmundagi evfemistik birliklarning funksional imkoniyatlari o'rganiladi. Tahlil natijalari evfemizmlarning axborotni yumshatilgan shaklda yetkazish, salbiy va keskin mazmuni neytrallashtirish hamda kommunikativ ehtiyotkorlikni ta'minlash vazifalarini bajarishini ko'rsatadi. Nemis va o'zbek media diskursidagi evfemizmlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida keng qo'llanilishi misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, ikki til o'rtasidagi funksional o'xshashlik va madaniy-uslubiy farqlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning tarjima jarayonida pragmatik va madaniy omillar muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi hamda media diskursda kontekstni to'g'ri talqin qilish zarurligini asoslaydi. Umuman olganda, evfemizmlar*

media diskursning muhim lingvistik vositasi sifatida axborotning emotsional ta'sirini kamaytirish va ijtimoiy muloqotni yumshatishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv media matnlarida lingvistik vositalarning pragmatik salohiyatini chuqurroq anglashga hamda til birliklarining ijtimoiy-kommunikativ funksiyalarini aniqlashga imkon beradi. Natijalar ilmiy jihatdan umumlashtirilib, yakuniy xulosalar beriladi hamda amaliy ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar *Evfemizm, media diskurs, semantika, pragmatika, siyosiy diskurs, online gazeta, nemis tili, o'zbek tili*

Семантико-прагматические особенности эвфемизмов в немецком и узбекском медиадискурсе

Нуркулов Жавлон Рашид угли
javlon.nurkulov0505@gmail.com

Стажёр-преподаватель, Кафедра теории немецкого языка, Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация *В статье проводится сопоставительный анализ семантических и прагматических особенностей эвфемизмов в немецком и узбекском медиадискурсе. В качестве исследовательского материала используются тексты онлайн-газет, на основе которых изучаются функциональные возможности эвфемистических единиц в политической, экономической и социальной сферах. Результаты анализа показывают, что эвфемизмы выполняют функции смягчения информации, нейтрализации негативного и резкого содержания, а также обеспечения коммуникативной осторожности. В немецком и узбекском медиадискурсе эвфемизмы широко применяются в политическом, экономическом и социальном контекстах, что подтверждается примерами. Одновременно выявляются функциональные сходства и культурно-стилистические различия между двумя языками, обусловленные особенностями их коммуникативных традиций и социокультурной среды. Полученные результаты свидетельствуют о важной роли прагматических и культурных факторов в процессе перевода эвфемизмов, а также о необходимости точной интерпретации контекста в медиадискурсе. В целом эвфемизмы рассматриваются как важное лингвистическое средство медиадискурса, способствующее снижению эмоционального воздействия информации и смягчению социального взаимодействия. Данный подход позволяет глубже понять прагматический потенциал языковых средств в медиатекстах и выявить их социально-коммуникативные функции. Полученные результаты обобщаются научно, формулируются итоговые выводы и обозначается их практическая значимость.*

Ключевые слова *Эвфемизм, медиадискурс, семантика, прагматика, политический дискурс, онлайн-газета, немецкий язык, узбекский язык*

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida ommaviy axborot vositalarining jamiyat ongiga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Axborotning tezkor tarqalishi media matnlarida qo'llaniladigan lingvistik vositalarning pragmatik imkoniyatlarini yanada muhimlashtirmoqda. Shu sababli media diskursda salbiy yoki noqulay mazmunni yumshatilgan shaklda ifodalovchi evfemizmlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim kommunikativ vosita sifatida faoliyat yuritadi. U nafaqat axborotni uzatish, balki uni interpretatsiya qilish va jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatish funksiyasini ham bajaradi. Shu bois media diskursda qo'llaniladigan lingvistik vositalar, xususan evfemizmlar, zamonaviy tilshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada nemis va o'zbek media diskursida online gazeta materiallari asosida evfemizmlarning semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Evfemizm tilshunoslikda noqulay, qo'pol yoki ijtimoiy jihatdan salbiy baholanuvchi birliklarni yumshatilgan shaklda ifodalovchi lingvistik birlik (DUDEN, n.d.) sifatida ta'riflanadi. Etimologik jihatdan "evfemizm" atamasi yunoncha *euphēmismós* so'ziga borib taqaladi va u "yoqimsiz yoki og'ir hodisani yumshatilgan ifoda orqali bayon etish" ma'nosini bildiradi. Mazkur atama nemis tilidagi *Euphemismus* shaklida XVIII asrda fransuzcha *euphémisme* va inglizcha *euphemism* ta'siri ostida keng tarqalgan (DWDS, n.d.).

Media diskursda evfemizmlar ko'pincha axborotni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki evfemistik shaklda yetkazish orqali namoyon bo'ladi. Bu esa jurnalistik matnlarda

kommunikativ yumshoqlikni ta'minlash bilan birga, ayrim holatlarda ma'lumotning salbiy ta'sirini kamaytirish yoki uni ijtimoiy jihatdan maqbul shaklga keltirishga xizmat qiladi.

Nemis va o'zbek online gazeta matnlarida evfemizmlar asosan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida faol qo'llaniladi. Masalan siyosiy diskursda bevosita "urush" kabi keskin birlik o'rniga nemis tilida *Konflikt, militärische Operation* kabi yumshoqroq ifodalar ishlatilishi kuzatiladi. O'zbek media matnlarida esa "qiyinchiliklar", "murakkab vaziyat" kabi evfemistik birliklar orqali noqulay mazmun nisbatan yumshatilgan holda beriladi.

Nemis media diskursida qo'llanilgan „... *hat die gemeinsame militärische Operation bereits Ergebnisse gebracht*“ (Der Tagesspiegel, 2026) jumlasida evfemistik ifodaning siyosiy va pragmatik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Mazkur gapda asosiy evfemistik birlik *militärische Operation* birikmasi qo'llanilgan bo'lib, u semantik jihatdan harbiy harakatlarni texnik shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Denotativ ma'noda ushbu birlik harbiy kuchlar tomonidan amalga oshirilgan operativ faoliyatni bildiradi. Biroq media diskurs konteksida u urush, hujum, qurolli to'qnashuv kabi salbiy va keskin semantik yuklamaga ega tushunchalarning o'rnini bosadi. Natijada voqelikning konfliktli xarakteri yumshatiladi va axborot nisbatan lisoniy yumshatilib taqdim etiladi. Shu jihatdan yuqoridagi maqolada qo'llanilgan *militärische Operation* birligi leksik-semantik evfemizm sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek media diskursida ham evfemizmlar axborotni yumshatilgan va ijtimoiy maqbul shaklda yetkazishda faol qo'llaniladi. Xususan, " ... *шимолидаги "мураккаб вазият" тугфайли*" (Absattarov, 2024) birligida qo'llangan "murakkab vaziyat" evfemik ifodasi real harbiy xavf yoki qurolli to'qnashuvlar bilan bog'liq murakkab xavfsizlik holatini bevosita nomlamasdan, uni umumlashtirilgan va abstrakt shaklda ifodalashgan xizmat qiladi. Mazkur birlik denotativ jihatdan *qiyin holat* yoki

noqulay sharoit ma'nosini anglatsa-da, diskursiv kontekstda u konfliktli vaziyatni yashirin tarzda ifodalaydi. Natijada salbiy voqelikning to'g'ridan-to'g'ri ifodalanishi cheklanib, uning emotsional va psixologik ta'siri sezilarli darajada pasaytiriladi. Shu jihatdan "murakkab vaziyat" birligi leksik-semantik evfemizm sifatida talqin qilinadi. Pragmatik nuqtai nazardan esa ushbu evfemizm kommunikativ ehtiyotkorlikni ta'minlash, ommaviy vahimani kamaytirish hamda diplomatik uslubni saqlash funksiyalarini bajaradi. Shu orqali axborot keskin va to'g'ridan-to'g'ri ifoda o'rniga yumshatilgan, neytral va rasmiy diskursiv shaklda auditoriyaga yetkaziladi.

Bundan tashqari evfemizmlar media diskursda faqat harbiy-siyosiy mavzularda emas, balki ijtimoiy, tibbiy hamda iqtisodiy sohalarga bog'liq mavzularda ham faol qo'llaniladi. Xususan, „*Ein Experte erklärt, woran das liegt – und wie man sein Gehirn auch im fortgeschrittenen Alter austricksen kann*“ (Berkefeld, 2025) jumlasida qo'llanilgan *fortgeschrittenes Alter* birligi keksalik tushunchasini yumshatilgan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur birlik denotativ jihatdan inson hayotining qarilik bosqichini anglatsa-da, diskursiv kontekstda yoshga oid holatni bevosita va keskin ifodalamay, uni ijtimoiy jihatdan neytral shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Pragmatik jihatdan esa ushbu evfemizm kommunikativ muloyimlikni saqlash hamda yosh bilan bog'liq salbiy stereotiplarni yumshatish funksiyalarini bajaradi. Shu orqali media diskursida insonning yoshi bilan bog'liq holat keskin yoki noqulay mazmunda emas, balki ijtimoiy jihatdan maqbul va muloyim shaklda ifodalanadi.

O'zbek media diskursida ham ijtimoiy guruhlarni yumshatilgan va hurmat ohangida ifodalashda faol qo'llaniladi. Xususan, *keksalar* yoki *qari odamlar* so'zi o'rniga *nuroniylar*, *yoshi ulug' insonlar* kabi evfemik birliklar bilan ifodalanadi. "... *yoshi ulug' insonlar va nuroniylarning O'zbekistonda sog'lig'ini tiklashi*

va dam olishlari, shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk ajdodlar qadamjolarini ziyorat qilishlari uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratib beriladi" (Matnazarov, 2023) jumlasida mazkur birliklar yoshga oid ijtimoiy guruhni hurmat ohangida va ijobiy konnotatsiya bilan ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgani kabi media diskursda iqtisodiy jarayonlarga oid evfemizmlar ham keng qo'llaniladi. Xususan, „*Zum anderen gebe es ein allgemeines Nachlassen der wirtschaftlichen Aktivität zum Jahreswechsel, der sich «in einer erhöhten Freisetzung von Arbeitskräften ebenso wie in einem Aufschieben von Einstellungen» zeige*“ (Der Spiegel, 2022) jumlasida iqtisodiy faollikning pasayishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik holati bevosita *Entlassung* yoki *Arbeitslosigkeit* kabi keskin birliklar bilan ifodalanmay, balki evfemistik tarzda ifodalangan. Mazkur gapda qo'llanilgan "erhöhte Freisetzung von Arbeitskräften" birligi ishchi kuchining mehnat bozorga chiqishini bildirsa-da, diskursiv kontekstda u xodimlarning ishdan bo'shatilishini bevosita nomlamasdan, uni yumshatilgan va neytral leksik shaklda ifodalaydi. Natijada salbiy iqtisodiy hodisa ochiq va ekspressiv tarzda emas, balki stilistik va texnik terminologiya orqali uning emotsional yuklamasi sezilarli darajada kamaytirilgan.

Shunga o'xshash holat o'zbek media diskursida ham kuzatiladi. Xususan, "*Davlat boshqaruvi xodimlari soni 15 foizgacha optimallashtiriladi*" (Jalolxonov, 2021) kabi jumalarda ham iqtisodiy yoki ma'muriy qisqartirish jarayonlari bevosita xodimlar *ishdan bo'shatiladi* yoki *shtatlar qisqartiriladi* tarzida emas, balki evfemistik birliklar orqali ifodalanadi. Bu yerda qo'llanilgan optimallashtiriladi leksemasi denotativ jihatdan tizimni samaraliroq tashkil etish ma'nosini anglatsa-da, pragmatik jihatdan kontekstda u xodimlar sonining kamaytirilishini bilvosita ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur evfemizmning qo'llanilishi media matnida salbiy iqtisodiy yoki ijtimoiy oqibatlarni yumshatish vazifasini bajaradi, chunki *qisqartirish*, *bo'shatish* kabi birliklar jamoatchilik ongida salbiy qarashlarni yuzaga keltirishi mumkin hamda ular kuchli emotsional ta'sirga ega hisoblanadi. *Optimallashtirish* esa aksincha, jarayonni ratsional boshqaruv, samaradorlikni oshirish yoki tizimni modernizatsiya qilish bilan bog'liq ijobiy tushuncha sifatida talqin etishga imkon beradi. Natijada axborotning salbiy emotsional ta'siri pasayadi hamda auditoriyada keskin reaksiyoning oldi olinadi. Shu sababli nemis va o'zbek media diskursida iqtisodiy jarayonlarga oid evfemizmlar muhim hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar ikki tilda ham asosan kommunikativ yumshatish, emotsional ta'sirni kamaytirish hamda axborotni ijtimoiy

jihattan qabul qiladigan shaklda yetkazish funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, ular ayrim holatlarda voqelikning real mazmunini qisman yashirish yoki uni ideologik jihatdan neytrallashtirish vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Nemis va o'zbek media diskursi o'rtasidagi qiyosiy tahlil esa evfemizmlarning funksional o'xshashligini, biroq ularning lingvistik ifodalanishida madaniy va uslubiy farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu farqlar har bir tilning kommunikativ an'analari va ijtimoiy-madaniy kontekstlari bilan bevosita bog'liqdir.

Shunday qilib, evfemizmlar media diskursning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat tilning semantik va pragmatik imkoniyatlarini kengaytiradi, balki jamiyatdagi axborot almashinuvi jarayonining uslubiy va ijtimoiy xususiyatlarini ham belgilab beradi.

References:

1. Absattarov, F. (2024, September 25). Ўзбекистоннинг Тел-Авивдаги элчихонаси Исроилда бўлиб турган Ўзбекистон фуқароларига хавфсизлик чораларини кучайтиришни тавсия қилди. *Kun.uz*. <https://kun.uz/kr/12760096>
2. Berkefeld, H. (2025, November 27). Das Gedächtnis verändert sich: warum vergeht die Zeit schneller je älter wir werden. *Der Tagesspiegel*. <https://www.tagesspiegel.de/gesundheit/das-gedachtnis-verandert-sich-warum-vergeht-die-zeit-schneller-je-alter-wir-werden>
3. Duden. (n.d.). *Euphemismus*. <https://www.duden.de/rechtschreibung/Euphemismus>
4. DWDS. (n.d.). *Euphemistisch*. <https://www.dwds.de/wb/euphemistisch>
5. *Der Spiegel*. (2022, February 1). Bundesagentur für Arbeit: Zahl der Arbeitslosen steigt weiter an. <https://www.spiegel.de/wirtschaft/soziales/bundesagentur-fuer-arbeit-zahl-der-arbeitslosen-steigt-weiter-an>
6. *Der Tagesspiegel*. (2026, March 19). Nahost-krieg: Netanjahu – Iran kann kein Uran mehr anreichern. <https://www.tagesspiegel.de/internationales/nahost-krieg-netanjahu-iran-kann-kein-uran-mehr-anreichern-15381025.html>
7. Jalolxonov, O. (2021, February 6). Davlat boshqaruvi xodimlari soni 15 foizgacha optimallashtiriladi. *Kun.uz*. <https://kun.uz/13938038>
8. Matnazarov, O. (2023, March 16). O'zbekiston Hatayda uy-joylar, maktab va infratuzilma obyektlari qurib beradi. *Kun.uz*. <https://kun.uz/41219815>